

## “FARHOD VA SHIRIN” BADIYYATINING AYRIM MASALALARI

**Sayidova Shahruza Sohibovna**

Buxoro davlat universiteti 2-bosqich magistranti

**Annotatsiya:** Maqolada Hazrat Alisher Navoiyning tashbih, ruju’, iyhom, talmeh, husni ta’lil kabi an’anaviy she’riy san’atlardan foydalanish mahorati haqida mulohaza yuritilgan.

**Kalit so’zlar:** Alisher Navoiy, "Farhod va Shirin", she’riy san’at, mavzu, g’oya, fikr, tashbih, ruju’, iyhom, talmeh, husni talil, mahorat

Hazrat Navoiy ijodi cheksiz bir ummon, bu ummonda ajabtovur, qimmatbaho marvaridlar bisyor. Bejiz buyuk adibni so’z san’atkori deb atamaymiz. Boisi uning bebaho fikr dengizida so’zlardan terilgan dur-u gavharlar diqqatimizni tortadi.

O’zbek mumtoz adabiyotining o’ziga xos jihatlari she’riyat bag’ridan unib chiqqan badiiy-tasviriy vositalarning nafosati bilan ham belgilanadi. Shoirning mahorati u qo’llagan she’riy san’atlarning betakrorligi, adabiyotning estetik vazifasini qay darajada umumlashtirishi bilan ham belgilangan. Bu borada Alisher Navoiy asarlari, ayniqsa, e’tirof etishga joiz. Chunki kichik qit’alardan tortib, yirik “Xamsa” dostonlarigacha badiiyatning bu kabi yuksak namunalarini bir necha bor uchratish mumkin. “Farhod va Shirin” dostonining badiiyatini ta’minlagan muhim omil ham ulug’ so’z san’atkorining badiiy-tasviriy vositalardan mohirona foydalana olganligidadir. “Farhod va Shirin” dostonining badiiy mukammalligini ta’minlashda badiiy-tasviriy vositalarning o’rni beqiyos. Quyida ulardan ayrimlariga to’xtalib o’tamiz.

Tashbeh san’ati. Tashbeh – Sharq adabiyotida keng tarqalgan san’atlardan biri bo’lib, o’xshatish ma’nosini ifodalaydi. Ikki narsa yoki tushunchani ular o’rtasidagi haqiqiy

yoki majoziy munosabatlarga ko'ra o'xshatish san'atidir. Tashbeh san'ati tasvirlanayotgan shaxs, buyum yoki tushunchani o'quvchi ko'z o'ngida aniqroq, jozibaliroq gavalantirishga xizmat qilib, asar timsollari ma'naviy qiyofasini yorqinroq ochish, binobarin, shoir g'oyasini o'quvchi ongiga to'laroq yetkazishga imkon beradi.

Tashbih san'ati quyidagi to'rt juzv asosida yuzaga keladi:

1. Mushabbah – nima o'xshatilgan bo'lsa, o'sha narsa yoki tushuncha.
2. Mushabbahi bih – nimaga o'xshatilgan bo'lsa, o'sha narsa yoki tushuncha.
3. Vajhi shibh – o'xshatish sababi.
4. Vositai tashbeh (odoti shibh) – o'xshatish vositasi.

Alisher Navoiy “Farhod va Shirin” dostonida tashbeh san'atining go'zal na'munalarini yaratadi. Quyida ularning ayrimlarini havola etamiz.

**Magar vahm adhamidur tez raftor,**

**Ne adham, jardai Shabdez raftor. (2;5)**

Bu yerda shoir qalamni tasvirlar ekan, hayotiy misollar orqali uning tez yurarligi va qora iz qoldirishini uchqur qora otga o'xshatadi. Keyigi misrada fikrlarini davom ettirib qalamni Xusrav parvezning oti Shabdezga mengzaydi. Keyingi baytda go'yoki Navoiy fikridan qaytgandek bo'ladi, ammo fikr yanada kuchaytilib qalam yuqori darajaga ko'tariladi.

**Dema Shabdez, bir qushdur xushovoz,**

**Qanotsiz aylabon har sori parvoz.(2;5)**

Ushbu baytda Alisher Navoiy ruju' (arabcha “qaytish” manosini bildirib, she'riyatda shoirning oldingi misra yoki baytda ifodalagan fikri, qo'llangan tasviriy vositasidan qaytgandek bo'ladi. Keyingi misra yoki baytda unga qaraganda kuchliroq ifoda, she'riy san'atni keltirish yoki oldingi fikrni aniqlashtirish, to'ldirish usuli. 10.47) san'atidan foydalanib tashbeh san'atining go'zal na'munasini yaratadi. Yuqoridagi misralarda qalamni Shabdez otga o'xshatgan ijodkor bu baytda fikridan qaytgandek bo'ladi, endi Navoiy qalamni xushovoz qushga o'xshatib, u qanotsiz ham hamma yerda parvoz qila oladi deya e'tirof etadi.

**Shaba minqoridin har sori zohir,**

**Valekin ul shaba sohib javohir. (2;5)**

Navoiy qalamning tarif-u tavsifini keltirar ekan undan sochilayotgan harflarni ham unutilib qo'ymaydi, yuqoridagi baytda qora siyohda bitilgan harflarni qimmatbaho qora munchoq toshga o'xshatiladi. Ushbu baytda Navoiyning yana bir qirrasini ko'zga tashlanadi, Navoiy tasavvufiy shoir, din va din ishlarini mukammal bilgan va shu yo'lda bir qator asarlar bitgan ijodkordir. Navoiy so'zda shunday qudrat borligini tasvirlaydiki go'yo qalamdan yozilayotgan harflar qora munchoq tosh, ya'ni "Hajarul asvad" ga o'xshatiladi, bizga ma'lumki bu tosh Ka'badada joylashgan va yer sayyorasining hech bir burchagida bunday toshga duch kelmaymiz. Hadisi sharifda keltirilishicha Ibrohim alayhi salom kabani bunyod etayotganlarida farzandlari Ismoil alayhisalomdan o'zgacha bir tosh olib kelishlarini so'raydilar. Ismoil alayhisalom qancha axtarmaslar o'zgacha tosh topolmaydilar va otalari oldiga qaytib kelib o'zgacha tosh topolmaganlarini aytadilar. Shunda Ka'ba ichida oppoq, boshqalariga o'xshamaydigan tosh paydo bo'lib qolganini payqaydilar va otalaridan bu qanday tosh ekanligini so'raganlarida bu toshni Jabroil alayhisalom jannatdan olib keganligini aytadilar". Boshqa bir hadisi sharifda "Hajarul asvad" toshi dastlab oppoq rangda bo'lganligi, insonlarning gunohlari sababli u qopqora tusga kirib qolganligi" ham aytiladi. Navoiy nazdida so'z ham jannatda, u yerga dahldor emas.

**Tutib gavharlari yaksar jahonni,**

**Nechukkim hayli axtar osmonni.(2;6)**

Ushbu baytda Alisher Navoiy tashbeh sa'anti bilan bir qatorda husni ta'lil (arabcha "chiroyli dalillash" ma'nosini bildiradi. Adabiy asarlarda tasvirlanayotgan biror hodisaga shoirona biror sabab ko'rsatish san'ati. 10.27) san'atini ham mohirona qo'llaydi. Navoiy so'zlarni misli yo'q, qimmatbaho gavharlarga o'xshatib jahonni har yerini tutganligini qayd etadi, keyingi misrada so'zlar jahonni egallashini go'yoki osmonni yulduzlar qoplab olganligiga o'xshatadi, O'quvchi tasavvurida so'zlarni yulduzlarga o'xshatish barobarida, yulduzlar osmonni qanday qoplab olgan bo'lsa, so'zlar ham jahonni shunday qoplab olgan deyish orqali fikrini chiroyli dalillaydi.

Keyingi baytda Alisher Navoiy ustozini Xusrav Dehlaviyni tasvirlar ekan, dunyoda hech kim shakar sochuvchi hinduiyzoda Dehlaviydek gavhar ulasholmaganligini qayd etadi.

**Kishi mundoq bo'la olmay guharrez,  
Magar ul hinduyi zoti shakarrez.(2;7)**

Alisher Navoiy Xusrav Dehlaviyni tasvirlar ekan ruju' hamda tashbeh san'atini yonma-yon qo'lash orqali ustozining tarifi - tavsifini go'zal satrlar orqali o'quvchi ko'z o'ngida gavdalantiradi.

**Ne hindu, to'tiyi shirin maqol u,  
Ne to'ti, bulbuli sho'rida hol u. (2;7)**

Bu baytda Navoiy go'yo yuqoridagi fikridan qaytgandek bo'ladi, ammo fikr yanada kuchaytirilib, Dehlaviy tasvifi ortib boradi. Yo'q sen uni hinduiyzoda dema, u shirinsoz to'ti de. keying misrada, uni to'ti ham dema balki uni parishonhol bulbul deb ata" deyish orqali Dehlaviyni dastlab to'tiga, so'ng parishonhol bulbulga o'xshatadi.

Dehlaviy tarifi keyingi baytlarda ham xuddi shu usulda kuchaytirib boriladi.

**Bo'yig'a nazm solg'on xulla axzar,  
Dema to'ti, degil Xizri payambar. (2;8)**

Ushbu baytda Alisher Navoiy Dehlaviy obrazini yaratishda to'rt xil badiiy san'at uyg'unligida ustozlarini tarifu-tavsif qiladilar. Dastlabki misrada Dehlaviy egnida nazm yashil ipakdan to'qilgan to'n yopingan" deya tasvirlanadi. Bizga ma'lumki Xizr payg'ambar eginlarida yashil mo'yna bo'lgan. Bu haqida Imom Navaviy "Tahzibul asmo va lug'ot" kitoblarida (Imom al Buxoriyning "As-Sahih" kitoblarida rivoyat qilingan) "Payg'ambar (s.a.v) uni Xizr deb atalishining sababi, mo'ynaning ustida o'tirgan edi, bir vaqt mo'yna uning ortidan yashil holda silkindi"-deydilar". Bundan tashqari Xizr so'zi "yashil", "zangori" ma'nolarni ham anglatadi. Bu baytda Navoiy Dehlaviy egnidagi nazm yashil ipakdan to'n borligini Xizr paygambar orqali chiroyli dalillaydi, Alisher Navoiy Dehlaviyni Xizr payg'ambarga tashqi o'xshashlikda tasvirlashdan tashqari ichki o'xshashlik mavjudligigiga ham ishora

keltiradi. Ulamolarning iltifotiga ko'ra, Xizr – Alloh Taolo rahmat va ilm bilan fayzlantirgan solih bandalardan edi. Navoiy nazdida Dehlaviy ham Xizr paygambardek Alloh Taolo tomonidan ilm bilan fayzlantirilgan edi.

Baytda uni to'ti dema, Xizr payg'ambar degil deyish orqali ruju' san'ati, Xizr payg'ambarni yodga olish orqali esa talmeh (nazar somoq. She'r yoki nasrda mashur tarixiy shaxslar, tarixiy voqealar, afsonalarga ishora qilish sa'ati 10,41) san'ati yuzaga kelgan.

“Farhod va Shirin” dan tahlilga tortilgan baytlar asosida xulosa qilish mumkinki, ko'p asrlik mumtoz adabiyotimizning bezavol xazinasini yaratgan Alisher Navoiy mumtoz she'riy san'atlardan o'rnida va me'yorida foydalangan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Alisher Navoiy. Farhod va Shirin. Toshkent: Badiiy adabiyot, 1964. Porso Shamsiyev nashri. -432b
2. Alisher Navoiy. Farhod va Shirin. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at, 1989. Doston matnini Porso Shamsiyev nashrga tayyorlagan. -592b
3. Alisher Navoiy. Farhod va Shirin. Alisher Navoiy Mukammal asarlar to'plami 20 jildlik, 8-jild. Toshkent: Fan, 1991. Nashrga tayyorlovchi Porso Shamsiyev ilmiy-tanqidiy matni asosida Suyuma G'aniyeva – 647 b.
4. Alisher Navoiy. Farhod va Shirin. Toshkent: O'qituvchi. 2006. Vahob Rahmonov nashri, lotin yozuvida- 405b
5. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. 4 tomlik, 1-tom. Fan, Toshkent: 1983-656b
6. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. 4 tomlik, 2-tom. Toshkent: Fan, 1983-644b
7. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. 4 tomlik, 3-tom. Toshkent: Fan, 1984-649 b.
8. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. 4 tomlik, 4-tom. Toshkent: Fan, 1985-636b
9. Navoiy asarlari uchun qisqacha lug'at. Botirbek Hasanov tomonidan tayyorlangan. Toshkent: Fan, 1993-375b
10. A. Hojiahmedov. She'riy san'atlar va mumtoz qofiya. Toshkent: Sharq. 1998 -160b